



UDK:91.2

Qahramon ATAQULOV,
TKTI tayanch doktoranti
E-mail: ataqulovqahramon@gmail.com

Dsc, professor I.Siddiqov taqrizi asosida

MINTAQAVIY HAMKORLIKDA APEK TAJRIBASI

Аннотация

O'tgan asrning so'ngida mintaqaviy hamkorlik jarayonlarini global miqyosdagi ko'rinishi sifatida o'ziga xos muhit shakllandi deyish mumkin va bu xalqaro mintaqashunoslikda Osiyo tinch-Okeani mintaqasida APEK muhim bir tajriba bo'ladi. XX asrning oxirida muhim mintaqaviy savdo hamkorligi shakllanishiga tayyor bo'lgan Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligining kuchi XXI asrda pasaydi va ko'pchilikda u mintaqaviy hamkorlik sifatidagi hayotiylik va muhim ahamiyat kasb etishiga shubha qila boshladi. Mintaqaviy savdo hamkorligi sifatida o'z azolari uchun sarmoya va savdoni jalp qilishga urinishlari uchun ijobiy ustunlikka erishdi. So'ngi yillarda birdamlik yo'qligi va azolariga katta tasir o'tkaza olmaganligi sababli tanqidga uchradi. Maqolada mintaqaviy hamkorlik jarayonlaridagi tajribasi va alohida etirof etilishini inobatga olib APEK ning ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qilamiz.

Kalit so'zlar: "Mintaqaviy hamkorlik", mintaqaviylik, "ochiq mintaqaviylik", APEK, APEK tajribasi, savdo kelishuvi.

ОПЫТ АТЭС В РЕГИОНАЛЬНОМ СОТРУДНИЧЕСТВЕ

Аннотация

В конце прошлого века можно отметить формирование особой среды, отражающей процессы регионального сотрудничества в глобальном масштабе, и в этом контексте АТЭС (Азиатско-Тихоокеанское экономическое сотрудничество) стало важным примером для международного регионоведения. Если в конце XX века АТЭС демонстрировало силу и готовность к формированию эффективного регионального торгового сотрудничества, то в XXI веке его активность заметно снизилась, что вызвало сомнения в его жизнеспособности и значимости как модели регионального партнерства. Несмотря на это, организация смогла добиться положительных результатов в привлечении инвестиций и развитии торговли между странами-участницами. В последние годы АТЭС подвергается критике из-за отсутствия сплоченности и ограниченного влияния на своих членов. В статье рассматриваются положительные и отрицательные стороны деятельности АТЭС, а также её опыт в развитии регионального сотрудничества.

Ключевые слова: Региональное сотрудничество, регионализм, открытый регионализм, АТЭС, опыт АТЭС, торговое соглашение.

THE EXPERIENCE OF APEC IN REGIONAL COOPERATION

Annotation

At the end of the last century, a specific environment emerged as a global reflection of regional cooperation processes, and in this context, APEC (Asia-Pacific Economic Cooperation) became an important example in international regional studies. While APEC showed strong potential for the development of effective regional trade cooperation in the late 20th century, its influence declined in the 21st century, raising doubts about its viability and significance as a model of regional partnership. Nevertheless, APEC achieved certain advantages in promoting investment and trade among its members. In recent years, the organization has faced criticism due to a lack of cohesion and limited impact on its participants. This article analyzes the positive and negative aspects of APEC's activity and evaluates its experience in the development of regional cooperation.

Key words: Regional cooperation, regionalism, open regionalism, APEC, APEC experience, trade agreement.

Kirish. Mintaqaviy hamkorlik jarayonlarini tahlil qilishda Osiyo-Tinch okeani mintaqasida APEK ni mintaqaviy hamkorligi yaxlit organizm sifatida shakllanadi deyish qiyin. Chunki, APEK mintaqaviylashuvida mintaqaviy hamkorlik asoslari va prinsiplarining hammasi namoyon bo'lmaydi. Shuning uchun APEKni xalqaro savdo kelishuvlarini amalga oshiruvchi kaolitsiya sifatida namoyon bo'lishi kuzatiladi. 1989-yilda asos solingan Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi (APEK) Savdo bo'yicha bosh bitim (GATT) taminlanishiga etibor qaratgan va muvozanatlashgan holda "ochiq mintaqaviylik"ga yo'naltirilgan mintaqaviy savdo bitimini yaratishni maqsad qilgan. Geografiyasi, maqsadlari va intilishlariga ko'ra Mintaqaviy hamkorlik muhitini shakllanishigi asos bo'la oladi, qachonki APEK globallashuvning yangi tendensiyalariga muvofiq keladigan va

moslashaoladigan organizm sifatida, hamkorlik tamoillariga mos tizim shakllantirsa.

Tadqiqot metodologiyasi. Dunyoda glaballashuv sharoitida mintaqaviylashuv tendensiyasi kuchayib borar ekan, Osiyo-Tinch okeani mintaqasida ham almashinuv aloqalari va hamkorlik kuchayib bordi. Mintaqadagi hamkorlik jarayonlarida qatnashuvchi davlatlar taraqqiyot darajasi har xilligi va boshqa sabablarga ko'ra almashinuvlardan foyda oladigan kelishuv muhimligini angladilar. Biroq, bir qator olimlar bu kelishuvni mintaqaviy munosabalarini rivojlanishi uchun asos bo'lishiga ishonishmaydi. Tadqiqotchilar S.Fred va Bergen yozganidek, "APEK na Yevropa Ittifoqidagi bojxona ittifoqiga, na Shimoliy Amerika erkin savdo kelishuvi kabi erkin savdo hududiga aylanmaydi"[1]. Mintaqaviy hamkorlik sifatida APEK azo bo'lmaganlarni istisno qilmaydigan va

kamsitmaydigan ochiq mintaqaviylikka asoslanishi, shuningdek, yuksak darajadagi aloqalarni tartibga solish va boshqarish zarurligini belgilash edi.

Kam rivojlangan davlatlar sanoati kuchli rivojlangan mamlakatlar qatorida turishni istashadi. Bu borada Bergstenning fikri asoslidir: "zaifroq davlatlar tomonidan o'tkaziladigan sammitlar guruhning kamroq sanoatlashgan azolarini yeng ko'p tashvishlantiradigan rivojlanish masalalariga katta etibor beradi"[2]. Tadqiqotchilardan biri Mekay 1990-yillarda o'tkazilgan APEK yig'ilish maqsadlaridan birini misol keltirib, "barqaror o'sish, adolatli rivojlanish va barqarorlikka mos keladigan tarzda rivojlanish bo'shlig'ini qisqartirish"[3] degan edi. Yevropa Ittifoqi yoki NAFTA kabi mintaqaviy institutning tuzilmaganligi APEKning mintaqada mavjudligiga va savdo iqtisodiy kelishuv sifatidagi faoliyatiga katta xavf yuzaga keltiradi[4].

Natijalar va ularning tahlili. Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi hamkorlik Globallashuv sharoitida yuzaga kelayotgan xavf xatarlar va siyosiy inqirozli vaziyatga qaramasdan dolzarb ahamiyatini iyo'qotmagan. Globallashuv sharoitida mintaqaviy munosabatlarni rivojlantirishda boshqa mintaqalarning tajribasi ham muhim hisoblanadi, shu boisdan Osiyo-Tinch okeani mintaqasining rivojlanishida afzalliklar va qiyinchiliklarni tahlil qilsak.

APEKning mintaqaviy hamkorlik jarayonlarini rivojlantirishdagi afzalliklari: Taraqqiyot uchun imkoniyat. Mintaqaviy hamkorlik munosabatlarida qatnashuvchi azo davlatlar turli xil geografik muhit va iqtisodiy sharoitda bo'lishiga qaramasdan mintaqadagi hamkorlik global savdo iqtisodiy jarayonlarida alohida ahamiyatga ega. Masalan dunyoning yetakchi iqtisodiyotlaridan bo'lgan AQSh, Xitoy, Rossiya, Yaponiya kabi iqtisodiyoti sanoatga asoslangan mamlakatlarning APEK azosi bo'lishi mintaqada kam rivojlangan va rivojlanayotgan Indoneziya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarni salohiyat va imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Mintaqada geosiyosiy, iqtisodiy, ekologik va boshqa xavf-xatarlar tasir qiladigan boshqa davlatlar xalqlari ham malum darajada dunyo iqtisodiyotida o'rin egallashi qiyin kechadi. APEKga azo davlatlarning savdo va iqtisodiyot sohalarini rivojlantirish borasidagi kelishuvlar bu xalqlar iqtisodiy taraqqiyoti bilan bog'lanishi taraqqiyot uchun imkoniyat yaratadi. Shuningdek, ushbu xalqlarni ehtiyojlarini, kamchiliklarini va imkoniyatlarini muloqotga tortishga xizmat qiladi.

O'ziga xos bozor. APEK forumi azolari orasida manfaatlar borasida qarashlarda birdamlik yo'qligi seziladi. Sanoati yuqori rivojlangan davlatlar mintaqaga o'ziga xos bozor misolida qaraydilar, sanoat mahsulotlarini sotadigan, xomashyo va qishloq xo'jaligi mollari sotib oladigan. Bu borada Yevropa Ittifoqiga raqobatchi sifatidagi qarashlar APEKning tuzilishiga asos bo'lgan.

Sanoatlashish yo'li. Kam rivojlangan davlatlar sanoati kuchli rivojlangan mamlakatlar qatorida turishni istashadi.

Savdo uchun munosib maydon. Mintaqada savdo iqtisodiy munosabatlar hamkorlik muhitini yaxshilanishiga va iqtisodiy muhitning mustahkamlanishiga yo'l ochgan. APEK erkin savdo iqtisodiy kelishuv sifatida tashkil etilishi mintaq tabiiy sharoiti va iqtisodiy yetakchilarning mavjudligi jahon iqtisodiyotida muhim rol o'ynashini taminlaydi. Iqtisodiy munosabatlarida ishonchli sherik, inqirozli vaziyatlarda mustahkam himoyachi vazifasini bajara olgan.

Keltirilgan fikrlarda APEKning gullab yashnagan davri dastlabki 10 yillik desak bo'ladi, keyingi davrlarda mintaq hamkorlik munosabatlarini rivojida pasayish kuzatiladi. Tadqiqotchilarning fikricha bu xavfsizlik masalalariga etibor qaratmaganligi bilan izohlaydilar. Zero, yangi asrning boshlaridan mintaqaviy hamkorlikda ham

ijtimoiy-iqtisodiy ekologik xavf-xatarlar bilan birgalikda, terrorizm, ekstremizm, narkabiznes, qurol savdosi, xalqaro mehnat bozorining globallashuvi bilan toboro ko'payib borayotgan odam savdosi kabi ijtimoiy xavfi yuqori bo'lgan xatarlar insoniyat boshiga yangi muammolarni keltirmoqda. APEK azolaridan farqli ravishda boshqa mintaqaviy hamkorlik modellari mintaqaviy xavf-xatarlarga hamkorlikda qarshi turish, muammolarni birgalikda hal etish prinsiplarini muhim deb hisoblaydi. Dunyoda kechayotgan siyosiy inqirozli vaziyat Rossiya Ukraina urushi natijasida Rossiyaga dunyo hamjamiyati tomonidan qo'llanilayotgan sanksiyalar, hamda AQSh va Xitoy o'rtasida iqtisodiy bojlarning qo'llanilishi oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan "iqtisodiy urush" vaziyati ham mintaqada kutilayotgan iqtisodiy hamkorlikka ijobiy tasir qilmasligini taxmin qilish mumkin.

Mintaqaviy hamkorlik jarayonlariga salbiy tasir qiladigan tomonlari.

APEKning Osiyo-tinch okeani mintaqasida mintaqaviy hamkorlik jarayonlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan bir qator dalillar va kam taraqqiy yetgan dalatlarga yaratiladigan rivojlanish imkoniyatlariga qaramasdan birqator salbiy jihatlari ham mavjud.

Tenglik tamoiliga xavf. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ko'pgina mintaqalar va davlatlar AQSh bilan o'rnatilgan aloqalar foydali deb hisoblasada buning ijobiyligini inkor etadigan tomonlari ham kuzatiladi. APEK davlatlari dunyoda AQShning siyosiy iqtisodiy yetakchi kuch ekanligidan foydalanib mintaqadagi tasirini kuchaytirishi va o'z manfaatlarini ustun qo'yish xavfi doimiy saqlanib qolishidan xayiqishadi. Shuningdek, mintaqadagi taraqqiy qilmagan davlatlar AQSh bilan munosabatlarda qanday pazitsiyada turishi ham so'roq ostida qolgan. Shuning uchun hamkorlik tamoyillaridan biri bo'lgan manfaatlar tengligini tan olish so'roq ostida. Mintaqaviy hamkorlikda azo mamlakatlarning iqtisodiy salohiyati, taraqqiyoti va APEK ga qanday tuzulma sifatida qarashlariga, hatto madaniy rivojlanishdagi mavjud bo'lgan farqlar ham o'ziga xos tafovutni keltirib chiqaradi. Bunday holat mintaqaviy savdo iqtisodiy munosabatlarda AQSh ustunligini yanada kafolatlaydi. AQSh mintaqaviy munosabatlarda NAFTA (Shimoliy Amerika nizomi) da qanday iqtisodiy manfaatdorlik yaratgan bo'lsa, APEKda ham shunday ro'l o'ynashga harakat qiladi.

APEKda birdamlik va hamjihatlikning yo'qolishi. Mintaqaga AQShning tasirini kuchayishi yetmagandek, mintaqada rasmiy tuzilma yo'q, shuningdek, hamjihatlik ham yo'qolib bormoqda. O'tgan asrning 90-yillaridagi mintaqaviylashuv to'liqini kuchaygan davrda savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish borasidagi hamkorlik sifatida shakllangan APEK globallashuvning zamonaviy yondoshuvlariga moslashish strategiyasi yo'q, shuning uchun mintaqaviy hamkorlik jarayonlarida qatiyyatsizlik yuzaga kelgan. Faqat bayonotlarga asoslangan hamkorlik kelishuvlari azo davlatlar zimmasiga masuliyat yuklamaydi shuning uchun APEK doirasidagi majburiyatlar borasida tasavvur ham shakllanmagan. Bayonotlardagina keltiriladigan majburiyatlar ixtiyoriy ravishda bajariladi. Mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish asosida shakllanmagan, savdo-iqtisodiy munosabatlaridagi hamkorlikni rivojlantirish asosida tashkil etilgan APEKda "ochiq mintaqaviylashuv" targ'ib qilinadi. APEKga azo davlatlar va azo bo'lmagan davlatlar o'rtasida aniq aloqalar o'rnatish shakllari borasida tamoiil o'rnatilmagan. Bundan taxmin qilish mumkinki, azo davlatlar va azo bo'lmagan davlatlar o'rtasida ega bo'lgan imkoniyatlarning chegarasi aniq emas.

Yaana bir qiziq va tashvishli tomoni azo davlatlarning soni ko'pligi va geografik, iqtisodiy va madaniy xilma-xilligiga qaramay mintaqada yaxlit bir institutning tuzilmaganligi.

Mintaqaviy hamkorlikning qatiyatsizlik va savdo iqtisodiy munosabatlar rivojlanishidagi ketma-ket tushkunlikning davom etishi avvalgi jozibador obro'siga zarar keltirmoqda.

Xulosalar. Osiyo Tinch okeani mintaqasida APEK o'tgan asrning so'ngida dunyoda mintaqaviylashuvning yangi to'lqini paydo bo'lish sharoitida yangi raqobatchi sifatida shakllandi. Paydo bo'lgan davrida mintaqaviy hamkorlik muhitining shakllanishda geografiasining kengligi, iqtisodiy imkoniyatlari, savdoning o'sishi, darajasi va ko'lami jihatidan o'rnatilgan bo'ldi.

Globallashuv jarayonlarida shakllangan savdo iqtisodiy raqobat muhitini yuuzaga keltirgan mintaq va hamkorlikni qo'llab-quvatlovchi kelishuv sifatida rivojlanib bordi.

AQSh uchun mintaqada ta'sirini kuchaytirish imkoniyati, iqtisodiyoti rivojlangan boshqa APEK azolari uchun yaxshi bozor, kam rivojlangan azolari uchun rivojlanish imkoniyati bo'lgan.

Mintaqaviy hamkorlik susayib bormoqda, birdamlik va hamjihatlikning yo'qligi barqaror institutsional tizim shakllanishiga imkon bermaydi.

Geografiyasi, maqsadlari va intilishlariga ko'ra Mintaqaviy hamkorlik muhitini shakllanishiga asos bo'la oladi, qachonki APEK globallashuvning yangi tendensiyalariga muvofiq keladigan va moslashaoladigan organizm sifatida, hamkorlik tamoillariga mos tizim shakllantirsa.

ADABIYOTLAR

1. Berger, Mark T. "APEC and Its Enemies: The Failure of the New Regionalism in the Asia-Pacific." *Third World Quarterly* 20.5 (1999): 1013-1030. JSTOR. Web. 28 October 2016.
2. Bergsten, C. Fred. "APEC and World Trade: A Force for Worldwide Liberalization." *Foreign Affairs* 73.3 (1994): 20-26. JSTOR. Web. 28 October 2016. 23-6.
3. McKay, John. "APEC: Successes, Weaknesses, and Future Prospects." *Southeast Asian Affairs* (2002): 42-53. JSTOR. Web. 28 October 2016. 46-6.
4. Park, Sung-Hoon and Jeong Yeon Lee. "APEC at a Crossroads: Challenges and Opportunities." *Asian Perspectives* 33.2 (2009): 97-124. JSTOR. Web. 28 October 2016. 102-6.
5. By Erika Hage Redundancy in the Twenty-First Century: An Examination of and Argument Against APEC ojsadmin, +PSURV2I2-62-65.pdf
6. Ravehill, John. "APEC and the WTO: Which Way Forward for Trade Liberalization?" *Contemporary Southeast Asia* 21.2 (1999): 220-237. JSTOR. Web. 28 October 2016
7. Maddaremmeng Panennungi*, Rahadjeng Pulungsari, Evi Fitriani, Lily Tjahjandari, Surjadi and Padang Wicaksono Analysis of Issues Development in Asia-Pacific Economic Cooperation <https://www.researchgate.net/publication/293080811>
8. Global Political Economy. 4th ed. Oxford: Oxford University Press, 2014. Print